

## YOSHLAR TARBIYASIDA HAMKORLIK

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-kurs 318-guruh kursanti  
Temirov Islom Musurmon o‘g‘li ning  
“Yoshlar tarbiyasida hamkorlik ” mavzusida yozgan maqolasi*

**Annotatsiya:** Profilaktika inspektorining ma‘muriy hududdagi ijtimoiy va kriminogen vaziyatni o‘rganish va baholash bo‘yicha faoliyati oid kriminologik huquqiy ta‘limotlar, fikrlar qarashlar va ularni takomillashtirishni taqoza etuvchi omillar mantiqiy ketma-ketlikda hozirgi kun talablaridan kelibchiqqan holda ilmiy tahlil qilinadi, tavsiflaydi hamda uni nazariy taminlash, takomillashtish borasida ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar beradi.

**Аннотация:** Криминологические положения, мнения и факторы, требующие их совершенствования, в деятельности инспектора по профилактике по изучению и оценке социальной и криминогенной ситуации на административной территории научно анализируются и описываются в логических последовательностях, исходя из требований современности, и в целях ее теоретического обеспечения и совершенствования дает выводы, предложения и рекомендации.

**Tayanch so‘zlar:** Yoshlar, Yoshlar va davlat siyossati, yoshlar tarbiyasi, yoshalar jinoyatchiligi, yoshlar va globallashuv, yoshlar va huquqiy tarbiya.

Bugungi globallashuv zamonida barchamizdan hushyorlikni va ma‘naviy – mafkuraviy jihatdan kuchli immunetiga ega bo‘lishni talab qilmoqda. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari qancha rivojlangani sayin dunyo hamjamiyati o‘ratsida o‘zaro axborot almashish jarayoni ham shunchalik tezlashib bormoqda. Har qanday narsaning bir yaxshi bir yomon tomoni bo‘lgani kabi ushbu jarayonning ham o‘ziga xos ijobiy va ayni damda ko‘plab havotirlarga sabab bo‘layotgan salbiy tomonlari ham mavjud. Ana shunday salbiy tomonlaridan yoshlarimizni himoya qilish, turli zararli axborotlar ta‘siriga tushib qolib huquqbuzarlik va hatto jinoyat sodir qilib qo‘yishini oldini olish, ularni ma‘nan yetuk va o‘z shaxsiy fikriga, dunyoqarashiga ega qilib tarbiyalash maqsadida, bu uchun ma‘sul bo‘lgan jamiyatimiz faollari va davlat hokimiyati organlari o‘rtasida hamkorlik qilish, ota-bobolarimiz ta‘biri bilan aytganda bir yoqadan bosh chiqarish zarur bo‘lmoqda. Ayni damda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida vakolatli organ sifatida Ichki ishlar organlari yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta‘sir o‘tkazish va ularda qonunlarga hurmat ruhini shakillantirish borasida turli jamoatchilik tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va jamiyatimiz faollari bilan hamkorlik qilish juda muhim deb hisoblaydi va o‘z faoliyatida ushbu hamkorlikni aks ettirish borasida turli dasturlar va chora

tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Jumladan, yoshlarni bo'sh vaqtlarini samarali tashkil qilish maqsadida yoshlarni har tomonlama qo'llab quvvatlashni o'z oldiga maqsad qilib olgan nodavlat notijorat tashkilotlar bilan birgalikda joylarda kasbga yo'naltiruvchi shuningdek, ular uchun qiziq bo'lgan boshqa sport va ilmiy-ijodiy to'garaklar tashkil qilinmoqda.

Alohida ta'kidlash kerakki, profilaktika xizmatlari keng jamoatchilik, mehnat jamoalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarining faol yordamiga tayangan holda ichki ishlar organlarining nodavlat notijorat tashkilotlar hamda huquqni muhofaza qiluvchi boshqa idoralar bilan hamkorlikda qonunchilik va huquq-tartibotni mustahkamlash, aholining huquqiy madaniyatini oshirish, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini turli xil jinoiy tajovuzlardan qat'iy turib himoya qilish borasidagi qonun talablarini bajarishga vakolatli ma'sul sub'ekt hisoblanadi. Shuning uchun ham profilaktika xizmatlari fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishda, birinchidan, qonunchilikka qat'iy rioya qilishlari, ikkinchidan, yuqori darajada huquqiy madaniyatli bo'lishlari, uchinchidan, aholining huquq-tartibotni mustahkamlash borasidagi fikrlarini inobatga olishlari, to'rtinchidan, jamoatchilik yordamiga doimiy tayanishlari, beshinchidan, yuridik va jismoniy shaxslarning ariza va shikoyatlariga hamda xabarlariga tezlik bilan e'tibor berishlari va qonuniy chora-tadbirlarni ko'rishlari, oltinchidan, ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb madaniyati qoidalariga qat'iy amal qilgan holda xizmatda va oilada benuqson xulq-atvorga ega bo'lishlari zarur. Profilaktika (katta) inspektorlari huquqbuzarliklar profilaktikasini qonunda berilgan vakolatlar doirasida nodavlat notijorat tashkilotlar imkoniyatidan unumli foydalangan holda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish, g'ayriijtimoiy xulq-atvorga ega va huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni aniqlash, profilaktik ta'sir ko'rsatish orqali ularning xulq-atvorini tuzatish, fuqarolarni huquqbuzarliklarning turi, sodir etish usuli va vositalari, ijtimoiy xavfi, salbiy oqibatlar haqida ogohlikka chaqirish, huquqbuzarliklardan jabrlangan va jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularning xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarlikdan jabrlangan, g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarlik sodir etgan va unga moyil shaxslarning ijtimoiy reabilitatsiya qilinishi va ijtimoiy moslashtirilishida ko'maklashadilar. Mazkur faoliyatni samarali tashkil etish maqsadida profilaktika (katta) inspektorlarining bugungi kunda keng jamoatchilik, shu jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlar bilan hamkorligi muhimdir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 7 oktyabrdagi «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 274-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Fuqarolar yig'inining yarashtirish komissiyasi to'g'risidagi

Namunaviy nizomi»ga asosan fuqarolar yig‘inining yarashtirish komissiyasi tarkibiga fuqarolar yig‘inining diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchisi, fuqarolar yig‘ini hududidagi ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari, imom-xatib, ta’lim muassasalari rahbarlari yoki ularning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlari, qishloq vrachlik punkti (oilaviy poliklinika) vakili, hayotiy tajribaga ega bo‘lgan, namunali oila boshliqlari, aholi o‘rtasida obro‘-e’tiborga ega hamda o‘zining tarbiyaviy ta’sirini o‘tkaza oladigan mahalla faollari, shu jumladan, tashabbuskor yoshlar kiritilishi belgilab qo‘yildi. Shuningdek, mazkur qarorda yarashtirish komissiyasi o‘z vazifalarini amalga oshirishda fuqarolar yig‘ini hududidagi xotin-qizlar qo‘mitasi hamda «Yoshlar ittifoqi» ning hududdagi korxonalar, tashkilot va muassasalardagi boshlang‘ich tashkilotlari, ta’lim muassasalari va boshqa tashkilotlar, fuqarolar yig‘ini Kengashi a’zolari, fuqarolar yig‘ini faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha boshqa komissiyalar va aynan ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari bilan ham hamkorlik qilishi belgilandi.